


## IX. KICHIK TADBIRKORLIK


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 6 799 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 53 961 taga yetdi.

2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 49 145 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 535 tasi (105,5 %) Zangiota, 4 361 tasi (105,8 %) Qibray, 3 615 tasi (107,3 %) Toshkent tumanlari hamda 2 782 tasi (113,0 %) Chirchiq, 2 690 tasi (107,8 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %da




2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 6 799 tani tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1000 taga yoki 87,1 %ga kamaygan..


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni (yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining  
yillar kesimida o'sish dinamikasi**  
(yanvar-dekabr oylarida, %da)



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2022- yil yanvar-dekabr oylarida (jamiga nisbatan %da)



Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,8 %i), sanoatda (19,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12,7 %) sohalarida tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 46,5 %i (2021- yil yanvar-dekabrda 45,6 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 18 549,3 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 19,9 %) tashkil qildi;

- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi 30 568,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'sish sur'ati 102,5 % (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi yalpi mahsulotining 86,9 %) tashkil qildi;

- 13 308,9 mlrd. so'mlik investitsiyalar (viloyat bo'yicha umumiy investitsiyalar hajmining 38,1 %i) o'zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 81,5 %ni tashkil qildi;

- 9 111,1 mlrd. so'mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 75,0 %i) bajarildi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 7,8 %ga oshdi;


- avtomobil transporti yuk aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 %ga kamaygan, (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 56,1 %), yo'lovchi aylanmasi esa 1,4 %ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 97,8 %) ko'paydi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 76,1 %ini yoki 24 098,4 mlrd. so'mini (o'sish 106,5 %) kichik biznes korxonalarini shakllantirdi;

- xizmatlar umumiy hajmining 68,6 %i yoki 17 845,4 mlrd. so'mi (o'sish 108,9 %) kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri keldi;

- 616,9 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 30,1 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 1 719,5 mln. AQSh dollari (umumiy import hajmining 48,4 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o'zgarishi**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



**Kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Xizmat	Savdo	Investitsiya
<b>Jami viloyat</b>	<b>19,9</b>	<b>86,9</b>	<b>75,0</b>	<b>68,6</b>	<b>76,1</b>	<b>38,1</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	26,1	100,0	97,3	29,9	30,3	22,9
Olmaliq	2,1	99,8	15,2	67,3	86,1	3,9
Angren	23,4	97,8	52,1	64,4	61,7	62,8
Bekobod	2,1	99,5	81,4	75,4	87,7	8,5
Ohangaron	28,8	98,5	97,9	74,6	93,4	48,2
Chirchiq	30,9	100,0	89,7	67,0	70,9	23,9
Yangiyo'l	49,9	99,8	79,4	82,6	95,3	72,5
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	21,9	87,2	99,7	83,2	98,2	63,0
Ohangaron	10,4	85,8	98,3	76,0	97,0	88,6
Bekobod	42,6	84,3	64,9	78,0	93,5	36,4
Bo'stonliq	19,3	93,0	90,3	57,1	68,8	50,3
Bo'ka	31,1	94,3	100,0	83,8	95,4	45,3
Quyichirchiq	73,1	51,0	99,1	56,1	96,3	85,3
Zangiota	86,1	91,3	87,8	57,0	63,3	60,5
Yuqorichirchiq	64,3	96,6	68,5	79,1	93,4	70,3
Qibray	18,9	87,4	79,2	69,8	86,7	42,3
Parkent	86,6	99,6	100,0	79,9	97,4	55,5
Piskent	29,9	79,9	100,0	70,9	90,2	82,8
O'rta Chirchiq	46,2	82,5	96,2	74,2	92,4	70,3
Chinoz	45,0	95,9	97,9	67,7	76,3	73,0
Yangiyo'l	38,8	82,5	73,9	77,6	91,0	58,9
Toshkent	90,6	97,9	100	78,9	64,7	91,1